“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=346

2026-yil
1-son
yanvar
ISSN 3093-8546



# Zamonaviy sharoitda fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish va vafot etgan deb e’lon qilishning xususiyatlari

*Temurali Mamadjonov,*
*Chust tuman IIB JKB boshlig‘i, kapitan*
*mustaqil izlanuvchi*
*e-mail: tigrguy14@gmail.com*

***Аннотация.*** Mazkur maqolada fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish va vafot etgan deb e’lon qilish institutining ayrim nazariy va amaliy masalalari tahlil qilingan. Zamonaviy globallashuv va texnologik rivojlanish sharoitida ushbu institutni qo‘llashda yuzaga kelayotgan muammolar, xususan, vafot etgan deb e’lon qilish uchun belgilangan muddatning asoslanganligi, qasddan yashirinish holatlarini aniqlash, “manfaatdor shaxs” tushunchasining mazmuni hamda kreditorlarning protsessual huquqiy maqomi yoritib berilgan. Shuningdek, bedarak yo‘qolgan shaxsning mol-mulkini ishonchli boshqarish mexanizmi, qaytib kelgan fuqaroning mulkiy huquqlarini tiklashdagi qiyinchiliklar va amaldagi qonunchilik normalarining inson huquqlarini samarali himoya qilish prinsipiga muvofiqligi tahlil qilingan. Maqolada fuqarolik qonunchiligini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflar bayon etilgan.

***Калит сўзлар.*** Bedarak yo‘qolgan fuqaro, vafot etgan deb e’lon qilish, manfaatdor shaxs, kreditorlar, ishonchli boshqaruv, mulkiy huquqlarni tiklash.

***Аннотация.*** В статье рассматриваются отдельные теоретические и практические вопросы института признания гражданина безвестно отсутствующим и объявления его умершим. В условиях глобализации и технологического развития анализируются проблемы обоснованности сроков объявления гражданина умершим, выявления случаев умышленного сокрытия, содержания понятия“заинтересованное лицо”, а также процессуально-правовой статус кредиторов. Особое внимание уделено механизму доверительного управления имуществом безвестно отсутствующего лица и трудностям восстановления имущественных прав гражданина в случае его возвращения. Также оценивается соответствие действующих норм гражданского законодательства принципу эффективной защиты прав человека. По итогам исследования сформулированы научно обоснованные предложения по совершенствованию законодательства.

***Ключевые слова.*** Безвестно отсутствующий гражданин, объявление умершим, заинтересованное лицо, кредиторы, доверительное управление, восстановление имущественных прав.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

***Annotation.*** This article examines certain theoretical and practical issues related to the institution of recognizing a citizen as missing and declaring him or her deceased. In the context of globalization and technological development, the study analyzes the justification of statutory time limits for declaring a person deceased, the identification of cases of deliberate concealment, the content of the concept of an “interested person” and the procedural legal status of creditors. Particular attention is paid to the mechanism of trust management of the missing person’s property and the difficulties in restoring property rights when a citizen declared deceased later returns. The article also assesses the compliance of current civil legislation with the principle of effective protection of human rights. Based on the analysis, scientifically grounded proposals for improving civil legislation are presented.

***Keywords.*** Missing person, declaration of death, interested person, creditors, trust management, restoration of property rights.

Shaxsni bedarak yo‘qolgan deb topish va vafot etgan deb e’lon qilish instituti fuqarolik huquqining fundamental asoslaridan biri bo‘lib, uning asosiy maqsadi – g‘oyib bo‘lgan shaxsning o‘zi va uning qaramog‘idagi shaxslar hamda mulkiy manfaatdor tomonlar (vorislar, kreditorlar) huquq va manfaatlarini huquqiy himoya qilishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 33-37-moddalari hamda Fuqarolik protsessual kodeksining 30-bobi mazkur munosabatlarni tartibga soladi. Ammo globallashuv, migratsiya jarayonlari va texnologiyalarning rivojlanishi sharoitida bu institutning amalda qo‘llanilishi bir qator nazariy va amaliy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, manfaatdor shaxslar doirasi, muddatlarning asoslanganligi, mulkni ishonchli boshqarish samaradorligi va qaytib kelgan shaxsning huquqlarini tiklash mexanizmlari dolzarb ilmiy bahs mavzusi bo‘lib qolmoqda.

Fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish – uni vafot etgan deb e’lon qilish uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladigan dastlabki protsessual harakatdir. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 33-moddasiga ko‘ra: “Agar fuqaroning qayerdaligi haqida uning yashash joyida bir yil davomida ma’lumotlar bo‘lmasa, manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq sud bu fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topishi mumkin”.

Bir yillik muddat fuqaroning mulkiy huquqlarini (mulkni boshqarish, qarzlarni to‘lash va ta’minot ajratish) himoya qilish uchun yetarlicha qisqa hisoblanadi. Ammo ilmiy manbalarda, shaxsning qasddan yashirinishi yoki suddan qochishi holatlari ham uchrashi, bu esa uni bedarak yo‘qolgan deb topish uchun asos bo‘lib qolishi mumkinligi qayd etiladi.

Fikrimizcha, fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topishning asosiy maqsadi uning yuridik maqomini aniqlash bo‘lsa-da, bu jarayon samarali qidiruv bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi kerak.

Fuqarolik protsessual kodeksining 306-moddasi sudyaga ishni muhokamaga tayyorlashda ichki ishlar organlaridan “bor

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

ma’lumotlarni so‘rab olish” vakolatini beradi. Biroq, bu norma qidiruv harakatlarining hajmi va natijasiga aniq talab qo‘ymaydi. Shu sababli, sud qarorining asosliligini ta’minlash maqsadida FPK 306-moddaning birinchi qismiga quyidagicha qo‘shimcha kiritish taklif etiladi: “Shuningdek, sudya ichki ishlar organlaridan fuqaroning qidiruv tadbirlarining natijalari va rasmiy to‘xtatilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotnomani talab qilishi shart.”

Bunday talab sudga ariza beruvchining manfaatini (mulkni boshqarish) ko‘zlab emas, balki haqiqiy g‘oyib bo‘lish fakti asosida qaror qabul qilish imkonini beradi va qasddan yashirinish holatlarida noto‘g‘ri huquqiy oqibatlar kelib chiqishining oldini oladi.

Fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish va vafot etgan deb e’lon qilish jarayonini qo‘zg‘atish huquqi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida (FK 33-m., 36-m.) va FPK 305-moddasida “manfaatdor shaxslarga” berilgan. Biroq, qonunchilikda mazkur “manfaatdor shaxs” tushunchasining aniq ro‘yxati yoki mezonlari belgilanmagan.

Ilmiy manbalarda ham ta’kidlanganidek, fuqarolik qonunchiligida manfaatdor shaxslarning aniq ro‘yxati yo‘qligi tufayli yaqin qarindosh bo‘lmagan arizachilarga o‘zlarining “manfaatdorligini” asoslashga to‘g‘ri keladi [1]. Bunday noaniqlik huquqni amalga oshirish imkoniyatini qiyinlashtiradi, ba’zi hollarda esa ushbu huquqni ro‘yobga chiqarishga to‘sqinlik qiladi.

Ushbu institutdagi eng muhim muammolardan biri – bedarak yo‘qolgan shaxsning kreditorlari huquqlarini himoya qilish masalasidir. Amaliyotda, agar g‘oyib bo‘lgan shaxsning qarzlari mavjud bo‘lsa, uning qarindoshlari (vorislari) mol-mulkdan foydalanish va egalik qilish huquqini davom ettirish maqsadida, ataylab fuqaroni bedarak yo‘qolgan yoki vafot etgan deb topish to‘g‘risida ariza berishdan o‘zlarini tiyib turishlari mumkin. Bu holat kreditorlarning qonuniy huquqlarini jiddiy ravishda buzadi.

Shu bois, kreditor bedarak yo‘qolgan shaxsning mol-mulkidan qarzini undirishda manfaatdor bo‘lgan shaxs sifatida mazkur jarayonni qo‘zg‘atish huquqiga ega bo‘lishi kerakligi to‘g‘risidagi bahs dolzarb bo‘lib qolmoqda. Bu ularga mol-mulkni ishonchli boshqaruvga o‘tkazish va qarzdorlikni qonuniy tartibda hal qilish imkonini beradi.

Yuqoridagi muammolarni hal etish, huquqiy aniqlikni ta’minlash va kreditorlar huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining tegishli moddalariga quyidagicha qo‘shimcha kiritish taklif etiladi:

FK 33 va 36-moddalarga qo‘shimcha kiritish: “Mazkur moddalarda nazarda tutilgan manfaatdor shaxslar qatoriga, agar bedarak yo‘qolgan yoki vafot etgan deb e’lon qilinishi so‘ralayotgan fuqaroning moliyaviy majburiyatlariga putur yetkazilgan bo‘lsa, uning kreditorlari ham kiradi”.

Bu taklif kreditorlarga bedarak yo‘qolgan shaxsning mulkiga nisbatan o‘z talablarini qonuniy tartibda amalga oshirish uchun

protsessual asos yaratadi va bu bilan sud jarayonining xolisligi va asosliligini oshirishga xizmat qiladi.

Fuqaroni bedarak yo‘qolgan yoki vafot etgan deb topishning asosiy huquqiy oqibatlaridan biri uning mulkiga nisbatan huquqiy taqdirni hal qilishdir.

Fuqaro bedarak yo‘qolgan deb topilgandan so‘ng, uning mulkini saqlash va undan foydalanish maqsadida ishonchli boshqaruv mexanizmi qo‘llaniladi (FK 34-modda).

Amaldagi FKning 34-moddasida mol-mulkni ishonchli boshqaruvga topshirish zarurati “doimiy suratda boshqarib turish zarur bo‘lsa” degan mavhum ibora bilan belgilangan. Bu iboraning huquqiy aniqligi past bo‘lib, amaliyotda qaysi mulklar, masalan, tijorat aktivlari, aksiyalar, ishlab chiqarish vositalari yoki qimmatli qog‘ozlar “doimiy boshqaruvni” talab qilishi bo‘yicha yagona mezon yo‘q. Bu esa vasiylik va homiylik organlari tomonidan turlicha yondashuvlarga sabab bo‘ladi. Mulkning qadrsizlanishining oldini olish va uning samarali saqlanishini ta’minlash uchun bunday mulk turlarining ro‘yxatini qonun darajasida aniqlashtirish lozim.

Fuqaro vafot etgan deb e’lon qilinganidan so‘ng, uning mol-mulki vorislarga yoki uchinchi shaxslarga o‘tishi mumkin. Agar shaxs qaytib kelsa, sud avvalgi qarorni bekor qiladi va uning mulkiy huquqlarini tiklash jarayoni boshlanadi (FK 37-modda).

Amaldagi tartibda, qaytib kelgan fuqaroning mulkiy huquqlarini tiklash masalasi noqonuniy o‘zga shaxs egaligidan mol-mulkni talab qilib olish (vindikatsiya) normalari bilan chambarchas bog‘liqdir [2]. Agar fuqaroning mulkini qaytarib berishdan bosh tortilsa, u sudga vindikatsion da’vo bilan murojaat qilishga majbur bo‘ladi.

Ayniqsa, FKning 37-moddasining haq to‘lash asosida tuzilgan bitimlar bo‘yicha belgilangan qoidasi qaytib kelgan shaxs yangi sotib oluvchi uning tirikligini bila turib sotib olganini isbotlashi kerakligini talab qiladi. Bu isbotlash yuki amaliyotda qaytib kelgan fuqaro uchun katta protsessual to‘siq hisoblanadi. Bunday yondashuv, vijdonli sotib oluvchining manfaatini haddan tashqari himoya qilib, qaytib kelgan fuqaroning huquqlarini samarali tiklashga to‘sqinlik qiladi.

Ayrim mamlakatlar amaliyotida harbiy harakatlar munosabati bilan halok bo‘lgan fuqaroning o‘limi sud qarorisiz, tegishli davlat organining ma’lumotnomasi asosida ro‘yxatga olinayotgani kuzatilmoqda [3].

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1146-moddasiga ko‘ra, merosga kirishning umumiy muddati olti oy bo‘lib, u meros ochilgan kundan (o‘lim kuni yoki sud qarori qonuniy kuchga kirgan kun) boshlanadi. Agar o‘lim sud qarorisiz, ma’muriy hujjat asosida ro‘yxatga olinsa, merosni ochish uchun muddatni hisoblashda noaniqlik yuzaga keladi. Bunday holatda merosxo‘rlar muddatni o‘tkazib yuborish va meros huquqini tiklash uchun qo‘shimcha ravishda sudga murojaat qilishga majbur bo‘lishmoqda, bu esa merosga kirish jarayonini jiddiy ravishda

kechiktiradi va merosxo‘rlarning huquqlarini buzadi.

Fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish jarayonida qidiruv harakatlarining samaradorligini tasdiqlash bo‘yicha qat’iy huquqiy talablar mavjud emas. Bu esa sud qarorlarining asosliligini pasaytirishi va shaxsning qasddan yashirinishi holatlarida noto‘g‘ri huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

“Manfaatdor shaxs” tushunchasining keng va mavhumligi kreditorlarning qonuniy mulkiy huquqlarini samarali himoya qilishga to‘sqinlik qilmoqda. Mulkni boshqarishdagi aniqlik yo‘qligi: "Doimiy suratda boshqarib turish zarur bo‘lgan mol-mulk" tushunchasining aniq ta’riflanmaganligi, ishonchli boshqaruv mexanizmining samarali qo‘llanilishiga xalaqit beradi.

Vafot etgan deb e’lon qilingan fuqaro qaytib kelganda, uning mulkini vijdonsiz sotib oluvchidan qaytarib olishdagi isbotlash yukining uning zimmasiga yuklatilishi, huquqni tiklash jarayonini murakkablashtiradi va inson huquqlarini samarali himoya qilish prinsipiga zid keladi.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish va mazkur institutning huquqiy samaradorligini oshirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga quyidagi asosiy qo‘shimcha va o‘zgartirishlarni kiritish maqsadga muvofiqdir:

FK 33 va 36-moddalarga qo‘shimcha: “Manfaatdor shaxslar” doirasiga bedarak yo‘qolgan yoki vafot etgan deb e’lon qilinishi so‘ralayotgan fuqaroning kreditorlarini kiritish.

FK 34-moddaga qo‘shimcha: “Doimiy suratda boshqarib turish zarur bo‘lgan mol-mulk” tushunchasini tijorat aktivlari, qimmatli qog‘ozlar va ishlab chiqarish vositalari kabi aniq obyektlar bilan to‘ldirish.

FK 37-moddaga o‘zgartirish: Vafot etgan deb e’lon qilingan fuqaro qaytib kelganda, haq to‘lash asosida mulkni olgan shaxsning vijdonsizligini isbotlash yukini yengillashtirish yoki huquqni tiklash mexanizmlarini kuchaytirish.

Mazkur takliflarning amalga oshirilishi fuqarolik huquqlarini himoya qilish tizimini mustahkamlashga, sud jarayonlarining asosliligini oshirishga va bedarak yo‘qolgan shaxsning mulkiy manfaatlarini har tomonlama himoya qilishga xizmat qiladi.

**Адабиётлар:**

1. Гаркуша И.В. Особенности признания гражданина безвестно отсутствующим или объявления гражданина умершим в современных реалиях // Вестник ТИУиЭ. 2024. №2 (42). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-priznaniya-grazhdanina-bezvestno-otsutstvuyuschim-ili-obyavleniya-grazhdanina-umershim-v-sovremennyh-realiyah (дата обращения: 27.11.2025). [143]

2. Гражданское право: учебник : в 4 т. /отв. ред. Е. А. Суханов. -2-е изд., перераб. и доп. - Москва: Статут, 2019. Т.2 : Вещное право. Наследственное право. Интеллектуальные права. Личные неимущественные права. - 464 с. [28]

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

3. Об утверждении Правил выдачи справки об обстоятельствах исчезновения гражданина и справки об обстоятельствах исчезновения или возможной гибели гражданина, Правил выдачи справки о смерти гражданина, формы справки об обстоятельствах исчезновения гражданина, формы справки об обстоятельствах исчезновения или возможной гибели гражданина, формы справки о смерти гражданина. https://normativ.kontur.ru/document?moduleId=1&documentId=469806 [169]